

## TOVUSHLAR TASNIFINI O'QITISHDA MILLIY QADRIYATLARGA TAYANISH

*Baxridinova Nigora Bahtiyor qizi*  
*Namangan davlat pedagogika instituti*  
*O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi*  
*2-kurs magistranti*  
*bahriddinovanigora02@gmail.com*

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada o'quvchilar va oliy ta'lim muassasalari talabalariga "Ona tili", "Tilshunoslik" kabi fanlarda fonetikani milliy qadriyatlar asosida o'rgatish borasida so'z boradi. Bunda milliy qadriyat an'analimizga asoslangan "Askiya", "Emoji", "Maqollar", "Fotoso'z", "Ertak" metodlaridan foydalanilgan.

**KALIT SO'Z VA IBORALAR.** "Askiya", "Emoji", "Maqollar", "Fotoso'z", "Ertak", fonetika, tilshunoslik, unli, undosh, yuqori tor unli, o'rta keng unli, quyi keng unli, lablangan unli, lablanmagan unli, jarangli, jarangsiz, portlovchi, sirg'aluvchi, sonor, ma'no farqlash.

### KIRISH

O'zbek eli o'z tiliga, o'z erkiga, diniga, an'ana-qadriyatlariga, o'z o'tmishi va boy tarixiga ega buyuk xalq. Bunday elning farzandi bo'lish o'zi bir baxtdir. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan Yangi O'zbekistonning avvalgisidan anchagina farqi bor. Hozirda e'tibor qaratilayotgan eng muhim sohalardan biri bu ta'lim tizimidir. Chunki biz yosh-avlodni bilimli, o'zini taniydigan, o'zligini anglaydigan qilib tarbiyalashimiz lozimdir. Bunda ta'lim-tarbiya birinchi va asosiy rol o'ynaydi. Odamni odam, elni el o'z tili orqali taniydi, biladi. "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak- millatning ruhini yo'qotmakdur", -deb aytgan edilar buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy. Haqiqatdan ham yer yuzidagi jamiki millat bormi yoki elat, barchasini biz til orqali bilamiz. Til nafaqat o'zlikni tanitmak uchun, undan tashqari har bir xalqning tarixi, o'tmishi, madaniyati, milliy qadriyatlari, an'analari, ta'lim tizimi, dunyodagi o'rnini ko'rsatib beruvchi ko'zgu'dir. Shunday ekan har birimiz uchun o'z milliy tilimizni o'rganish ham farz ham qarzdur. O'zbek tilini o'qitishda milliy qadriyatlarga tayanishimiz bejizga emas. Bu ikki tushuncha bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Biri ikkinchisini doimo taqozo qiladi. Shu tufayli tilshunoslikni o'qitishda milliy qadriyatlardan foydalanib til ta'limini berish juda o'rinli hisoblanadi. Negaki bugungi o'sib kelayotgan yosh avlod o'z tili bilan birgalikda qadriyatlarini ham unutib yubormasdan o'rganishi kerak. Bunda bizga bir necha metod va texnologiyalar yordam

beradi. Yaqin yildan beri ona tili darsliklari yangilandi va undagi mavzular , grammatikani o'qitishga asoslangan qolip olib tashlandi. Uning o'rniga zamon talablariga javob beradigan, o'quvchilarni zeriktirmaydigan, fikrlashga , izlanishga , mustaqil izlanuvchilikka chorlaydigan , turli rasmlil , ibratli hikoya-matnli , audioli darslikka o'tildi va hozirda shu darsliklardan foydalanilmoqda. Elimizning muqaddas qadriyatlari borki, ularni bilmaslik, o'rganmaslik aybdir. Milliy qadriyatlar asosida dars tashkil etish, til ta'limini berishning afzallik tomoni shundaki, bunda o'quvchi xech qachon zerikmaydi , ham tilni ham milliy an'ana qadriyatlarni o'rganadi. Ushbu maqolada yuqoridagi fikrlarimizning amaliy isbotini ko'rib chiqamiz.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Maqolani yozish jarayonida metodikaga aloqador darslik va o'quv qo'llanmalari, umumiy o'rta ta'lim hamda oliy ta'lim uchun taviya etilgan darsliklar, A.Mavlanovning "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi" darsliklaridan ham asosiy manba etib foydalanildi. Xususan, pedagogika fanlari doktori, professor Mahbuba Sobirovaning 2023-yil nashrdan chiqqan "O'zbek tili va adbiyotini o'qitish metodikasi" darsligidan asosiy manba sifatida foydalanildi. Sh.Alimovning "O'zbek tili fonetikasi", N. Rahimovning "Tilshunoslik nazariyasi", F. Qo'chqorovning "O'zbek tilining leksikologiyasi va fonetikasi", R. Hasanovning "Milliy qadriyatlar va ta'lim", A. Vohidovning "O'zbek xalq maqollari va ularning semantik xususiyatlari" kabi adabiyotlardan, undan tashqari, 2023-yil bo'lib o'tgan "Milliy qadriyatlar va ma'naviy me'rosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan , 5 -sinf "Ona tili" darsligidan , N. Atayev, F. Rasulov, S.Xasanovlarning umumiy pedagogika bo'yicha 2011-yil nashrdan chiqqan o'quv qo'llanmalaridan, A. J. Yo'ldoshevning 2017-yil nashrdan chiqqan umumiy pedagogika bo'yicha o'quv qo'llanmasidan, "Til va adabiyot masalalari" nomli 2020-yil nashrdan chiqqan ilmiy maqolalar to'plamidan foydalanilgan.

### **TADQIQOT METODLARI**

O'zbek milliy qadriyatlari orasida o'ziga xos a'nanalar , urf-odat, bayramlar bor. Ulardan biri latifalar aytish san'atidir. Bir so'z bilan "Qiziqchilik" deb aytiladi o'zbek xalqida. Fonetika-nutq tovushlarini, nutqdagi tovush o'zgarishlarini , urg'u va uning turlarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Inson talaffuz apparatining imkoniyatidan kelib chiqqan holda nutq tovushi hosil qilishning umumiy shartlari (masalan, hosil bo'lish o'miga ko'ra lab, til, bo'g'iz undoshlarining farqlanishi, hosil bo'lish usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi, portlovchi-sirg'aluvchi tovush xossalari aniqlanishi kabilar), shuningdek, tovushning umumiy akustik xossalari o'rganiladi. Og'zaki nutqning tovush tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limi fonetika deb ataladi. Nutq tovushlari, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli ravishda, ma'no farqlaydi. Nutq tovushlari 2ga bo'linadi: unli va undosh. Bilamizki, unli fonemalar 6 ta hisoblanadi va

ular quyidagilardir: I, u, e, o', a, o. Birinchi metod "Latifa" metodi unli tovushlarni ajratish, bilish va yod olishga qaratilgan. Quyida bu metodning izohini beramiz: Dars jarayonida o'quvchilarga unli tovushlar haqida tushunchalar berilgandan so'ng, guruhni 6 ta mayda guruhchalarga bo'lamiz. Har bir guruh uchun maxsus kartochkalar tayyorlangan bo'ladi. Ularda esa o'zbek milliy qadriyati hisoblangan latifalar yozilgan bo'ladi. Jumboqli tarafi shundaki, latifadagi so'zlar tarkibidagi unli harflar tushirib qoldirilgan va guruh a'zolari ularni o'z o'rniga qo'yib latifani to'ldirib, chiroyli qilib aytib berishlari kerak bo'ladi. Misol uchun:


"Ertak" metodi ham fonetikani o'qitishda juda samarali metod hisoblanadi. Dono xalqimiz o'z farzandlariga bolaligidan boshlab ertaklar aytib katta qilishgan. Ertaklarda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, to'g'rilik va egrilik, halollik haqida so'z boradi va yoshlarni ezgu yo'lda tarbiyalaydi. Xuddi shu maqsadda ham unli tovushlar tasnifini o'rgatishda "Ertak" metodidan foydalanamiz. U quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi:

"Bor ekanda, yo'q ekan,  
Och ekanda, to'q ekan.

Bitta katta, hashamatli "Tilshunoslik" deb nomlangan qirollik bo'lgan ekan. Qirollikda 6 aka-uka: i, u, e, o', a, o unililar saltanatni boshqarishar ekan. Ular judayam ahil, inoq bo'lib doimo bir-birlarini qo'llab ish yuritishar ekan. Shunday go'zal saltanatning bitta katta mevali bog'i bor ekan. Unda hamma mevali daraxtlar o'sar va hosil berar ekan. Kunlardan bir kun shu bog'ga o'g'ri oralabdi va har kuni oz-ozdan mevalardan o'g'iray boshlabdi. Mevalar ham kundan-kunga ozayib, kamayayotgani sezilib qolibdi. Shunda aka-ukalar bir joyga yig'ilib, nima qilish kerakligi haqidagi o'ylashibdi va o'ylab-o'ylab judayam aqlli qaror qabul qilishibdi. Shu bog'da ulkan qarag'ay daraxti ham qad rostlagan ekan. Aka-ukalar shu daraxtdan foydalanib, o'g'rini topmoqchi bo'lishibdi. O'g'ri biror qush bo'lishi mumkin deb, I va U daraxtning eng **yuqorisiga**, cho'qqisiga chiqishibdi. Aka-uka E va O' o'g'ri biror hayvon bo'lishi mumkin deb **o'rtasiga**, A va O esa biror odam bo'lishi mumkin deb **quyisiga** joylashib olib bog'ni kuzatishibdi.

Quyida berilgan latifada unli tovushlarni o'z o'rniga qo'ying va latifani o'qib bering!

Ota \_g'l\_g\_ debdi:— O'g'lim, q\_shn\_xonadan p\_yp\_g'\_mn\_ olib ch\_qg\_n. O'g'li "Xo'p" deb qo'shni x\_n\_g\_ k\_rs\_, \_p\_s\_ o'tirgan \_k\_n. Bolani sh\_xl\_g\_ tutib \_p\_s\_g\_ debdi: — \_d\_m aytdilar-ki, q\_l\_g'\_ng\_zn\_ "burab" q\_y\_r \_k\_nm\_n... Opasi: — Nima deyapsan? T\_nt\_km\_s\_n?! Bo'lishi. m\_mk\_nm\_s! Bola otasi t\_m\_ng\_ qarab baqiribdi:— Ada, \_ng\_n\_m\_ yo chap t\_r\_f\_n\_m\_? Hech n\_rs\_d\_n bexabar otasi: \_kk\_l\_s\_n\_ ham! – dermish.



Shunda bir payt 2 o'g'ri odam kelib bog'dagi olmalarni uzib xaltalariga joylay boshlashibdi. Lekin ular qochishga ulgurmay, qo'lga tushishibdi. Oltovlon ularning kim ekanini, qayerdan ekanini surishtirishibdi. Ular aslida "ELLIKQAL'A" va "QUMQO'RG'ON" shaharlaridan bo'lib, u shaharlarda hayot kechirish, ro'zg'or qilish ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, kazzoblik sababli qiyinlashgan edi. Shu tufayli bu odamlar bog'dagi mevalar bilan hayot kechirishayotgan edi. Aka-ukalar ularning

gaplarini tinglab, ikkala shahardagi bunday ishlarga chek qo'yish maqsadida ikki odam bilan birga borishga kelishishdi. U odamlar xo'tikda ortidan **OLD QATORDA I,E,A, ORQA QATORDA O,U,O'** ergashib bordilar. Ellikqal'a dagi vaziyatni I,E,A , Qumqo'rg'ondagi vaziyatni O,U,O' inilar 3 kunga qolmay o'z iziga tushirib saltanatga qaytishdi. Barcha ularni duo qilib , ishlariga rivojlar tilashdi".

Bunda daraxt qismlari va undagi unililar yuqori tor, o'rta keng va quyi keng unililarni bildiradi. Ellikqal'a va Qumqo'rg'on shahar nomlarida faqat unli harflarga e'tibor bersak, Ellikqal'a- lablanmagan unililar ; Qumqo'rg'on - lablangan unililardan iboratdir. Ertakdagi aka ukalar o'g'rilar ortidan old qator va orqa qatorda saflanib borishi old va orqa qator unililarni bildiradi.

Undoshlar tasnifiga keladigan bo'lsak, kuchli ziddiyatdagi undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilar hisoblanadi:

- a) hosil bo'lish o'rniga ko'ra;
- b) hosil bo'lish usuliga ko'ra;
- d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra;

Buni o'qitishda ham o'zgacha "Emoji" degan metoddan foydalanamiz. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra til, lab , bo'g'iz undoshlariga bo'linadi. Sinf doskasiga til , lab va H shaklidagi emojilarni yopishtiramiz.



Lab rasmi tagiga 2 ta so'zni yozamiz:

- 1) **v**af**o**;
- 2) **M**bap**pe**.

Til rasmini tagiga ham so'zlar yozamiz:

- 1) **D**o'**st**lar **j**in **ch**izish**di**;
- 2) **Y**oy ;
- 3) O'**ng**ga-**ku**;
- 4) **g**'**i**q , **x**a-**x**a

H shaklidagi rasm tagiga **OH-OH** deb yozamiz.

Hosil bo'lish usuliga ko'ra :

- 1) portlovchi undoshlar: **B**om**d**od **t**ong**d**a **ch**aqq**o**n **g**o'**j**ach**i** **k**et**d**i.
- 2) sirg'aluvchi undoshlar: **S**hay**x** **a**h**l**i **v**af**o**siz**l**arg'a so'zlar.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

- 1) jarangli undoshlar: **M**en**g** **b**og'**i**md**a**gi **a**r**il**ar **v**iz-**v**iz **d**er**l**ar.
- 2) jarangsiz undoshlar: **P**ak**e**t**ch**i **x**oh**i**sh**i** **q**af**a**s

Sonorlar(Ovozdorlar, burun tovushlari) : **M**en**g** **r**ol**i**m.

Yuqorida yozgan soʻz va gaplarimiz tovushlari qaysi kategoriyada yozilgan boʻlsa shunga tegishli hisoblanadi. Bu yodlashga oson boʻladi. Undan tashqari bu tovushlar oʻrgatilgach, ularni mustahkamlash uchun topshiriqlar beriladi. 1- topshiriq : Oʻzbek xalq maqollari yoziladi va undagi unli va undosh tovushlar tasnif qilinadi. Masalan:

Ona yurtning omon boʻlsa,  
Rangi-roʻying somon boʻlmas  
1) Unlilar: o, a, i, oʻ qatnashgan.  
a-lablanmagan, keng, old qator;  
o- lablangan, keng, orqa qator;  
o- lablanmagan, tor, old qator;  
oʻ- lablangan, oʻrta keng, orqa qator.  
2) Undoshlar: n, y, r, t, m, b, l, s, ng qatnashgan.  
n-til oldi, jarangli, portlovchi, sonor;  
m- lab-lab, jarangli, portlovchi, sonor;  
ng-til orqa, jarangli, portlovchi, sonor;  
l- til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi, sonor;  
r- til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi, sonor;  
s- til oldi, jarangsiz, sirgʻaluvchi;  
y-til oʻrta, jarangli, sirgʻaluvchi;  
b-lab-lab, jarangli, portlovchi.

2- topshiriq: Elektron doskada bir necha predmetlar rasmi koʻrsatiladi. Ular ostida maqollar yashiringan boʻladi. Oʻquvchilar ularni topib, tovushlarini tasnif qilib berishlari kerak boʻladi. 2-usul: guruh 3 ga boʻlinib, har bir guruhga 3 xil mavzuda maqollar topish topshirigʻi beriladi. Topilgandan soʻng, ularni tasniflab chiqish kerak boʻladi. Masalan, 1- guruhga Vatan haqida, 2- guruhga doʻst mavzusida, 3-guruhga halollik mavzusida maqollar topish aytiladi. Vatan haqida "Ona yurtning - oltin beshiging" topildi. Endi undagi tovushlarni tasnif qilamiz. Unlilar-o, a, i, e, u qatnashgan.

a-lablanmagan, keng, old qator;  
o- lablangan, keng, orqa qator;  
o- lablanmagan, tor, old qator;  
oʻ- lablangan, oʻrta keng, orqa qator. Undoshlar - y, r, t, ng, l, n, b, sh, g qatnashgan.  
y-til oʻrta, jarangli, sirgʻaluvchi;  
b-lab-lab, jarangli, portlovchi.  
r- til oldi, jarangli, sirgʻaluvchi, sonor;  
ng-til orqa, jarangli, portlovchi, sonor;



l- til oldi, jarangli, sirg'aluvchi, sonor;  
 n-til oldi, jarangli, portlovchi, sonor;  
 g- til orqa , jarangli, portlovchi;  
 sh- til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi;  
 t- til oldi , jarangsiz, portlovchi.

Fonema ma'no farqlash xossasiga ega. Lekin tovushning barchasi ham har doim ma'no farqlayvermaydi. Bir fonemaning nutqiy varianti o'rnini ikkinchi fonemaning nutqiy varianti egallasa, so'z o'zgarib ketadi: bosh — bot, bosh - besh kabi. Lekin bir fonemaning bir varianti o'rnini uning ikkinchi bir varianti bilan almashtirilsa, ma'no farqlash amalga oshmaydi. O't (o'simlik) so'zidagi (o') unlisini bir kishi til oldi, boshqasi esa, shevaning fonetik xususiyatidan kelib chiqqan holda, til orqa tovushi sifatida talaffuz etadi. Lekin ular bir fonema varianti bo'lganligi sababli o'zaro ma'no farqlash qobiliyatiga ega emas. Tovushlarning ma'no farqlashini o'rgatishda milliy qadriyatlarimizdan bir bo'lgan topishmoqlardan foydalanamiz.

Quyida bir necha topishmoqlardan misollar keltirilgan:

Po'lat qushim uchdi **ketdi**,  
 Bir zum o'tmay Oyga **yetdi**. (Raketa)

~~~~~

Shamolday uchqur,  
 Yo'q oyog'i va **qo'li**.  
 Ko'zga ko'rinmas,  
 Charog'on yurgan **yo'li**. (Elektr toki)

~~~~~

Katta quti, **ko'zi** bor,  
 Ko'p tomosha, **so'zi** bor. (Televizor)

~~~~~

Cho'zilib yotar **narvon**,  
 Undan o'tar uy-**karvon**. (Poezd yo'li)

~~~~~

Ko'zi **yaltiraydi**, ichi **qaltiraydi**. (Avtomobil)  
 Ketdi-yetdi, qo'li-yo'li, ko'zi-so'zi, narvon-karvon, yaltiraydi-qaltiraydi  
 so'zlarida bir tovush bilan ma'no farqlanyapti.

## TAHLIL VA NATIJALAR

"Latifa" metodi orqali:

- 1) o'quvchilarning kayfiyati ko'tariladi;
- 2) o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- 3) mavzuning tushunilishi oson bo'ladi;
- 4) o'quvchilarning aqliy salohiyati oshadi

5) dars bilan birgalikda o'zbek milliy qadriyatlaridan birini ya'ni latifani o'rganishadi

"Ertak" metodi orqali :

- 1) darsda barchaning diqqati yig'iladi;
- 2) o'quvchilarning tasavvuri va fikrlashi ortadi;
- 3) mavzu tushunilishi oson bo'ladi;
- 4) ertak ham milliy qadriyatlar sirasiga kirishi uqtiriladi.

"Emoji" metodi ham juda samarali hisoblanadi.

- 1) o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi;
- 2) darsga bo'lgan qiziqish ortadi;
- 3) rasmlar tufayli ma'lumotlar esda qoladi;
- 4) gaplar qiziq bo'lganligi uchun bittada esda qoladi;
- 5) mavzu tushunilishi oson bo'ladi ;

6) emojilar inson qiyofalarini ifodalagani uchun , insonlar turli xil qiyofada bo'lishi mumkin , ammo ko'tarinki kayfiyat ya'ni ijobiylik hamisha yaxshidir. Milliylikda ham inson ijobiy xususiyatlari qadrlanadi. Shu sababli yuqori kayfiyatdagi qiyofalar olingan. Va ular ostidagi so'zlar ham bir tarafdin chuqur ma'noga ega , bir tarafdin yodda qolarlikdir.

"Fotoso'z" metodi ham juda qiziqarli metoddir.

Unda:

- 1) O'quvchilar diqqati bitta nuqtaga qaratilgan bo'ladi;
- 2) o'quvchilarning aqli charxlanadi;
- 3) o'quvchilar aqliy salohiyati oshadi , fikrlash qobiliyati yuksaladi;
- 4) metod orqali ham tovushlarni , ham maqollarni o'rganadi;
- 5) dars yuqori kayfiyatda o'tadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

1.Fonetika darslarida xalq maqollari va topishmoqlar , o'ziga xos metodlar orqali milliy qadriyatlarni o'rgatish talabalar bilimini oshiradi va darsga qiziqishini orttiradi<sup>1</sup>.

2.Milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim talabalarda tilga hurmat va milliy ongni shakllantiradi<sup>2</sup>.

## **MUHOKAMA**

Fonetikani o'qitishda milliy qadriyatlarga tayanishning afzalliklari.

Fonetikani o'qitishda milliy qadriyatlarga asoslanish nafaqat til bilimlarini oshiradi, balki talabalar ongida milliy madaniyatning ahamiyatini kuchaytiradi. Milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim yondashuvi orqali fonetik tushunchalarni talabalarga xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib o'rgatish an'anaviy usullardan samaraliroq bo'lib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi<sup>3</sup>.

Xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarning o'rni



Xalq maqollari, dostonlar, matallar va xalq qo'shiqlaridagi fonetik jihatlar milliy qadriyatlarni singdirishning eng samarali vositasidir. Bu usul yordamida talabalar tilning tarixiy shakllanishi, turli sheva va lahjalarning fonetik xususiyatlarini tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hasanov R. ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim nafaqat til o'rganish, balki milliy ongni shakllantirishning ham muhim yo'nalishi hisoblanadi<sup>4</sup>.

Amaliy mashg'ulotlarda milliy qadriyatlarning ahamiyati

Fonetikani o'qitishda amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish samarali ta'limiy natijalarga olib keladi. Xususan, o'qituvchilar shevalar bo'yicha loyihalar tayyorlash, doston va maqollarni fonetik tahlil qilish kabi mashg'ulotlarni yo'lga qo'ysalar, dars jarayonining samaradorligi oshadi. Qo'chqorov F. bu haqda shunday deydi: "Fonetikani o'rganishda xalq og'zaki ijodiga asoslanish talabalarning nutq madaniyatini shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi"<sup>5</sup>.

## **XULOSA**

Fonetikani o'qitishda milliy qadriyatlarga tayanish nafaqat til ta'limining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda milliy o'zlikni anglash, madaniy merosga hurmat bilan qarash va o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuvning bir necha muhim jihatlari mavjud:

1. Til bilimlarini samarali o'zlashtirish. Talabalar fonetik tushunchalarni milliy qadriyatlarga asoslangan misollar orqali o'rganganida, ular mavzuni yaxshiroq tushunadilar va amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Milliy ongni shakllantirish. O'zbek xalqining sheva va lahjalari, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish talabalarni ona tiliga mehr uyg'otadi va ularning milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

3. Nutq madaniyatini rivojlantirish. Fonetika darslarida xalq maqollari va dostonlar bilan ishlash orqali talabalar nafaqat tilning fonetik xususiyatlarini, balki to'g'ri va chiroyli nutq qurish qoidalarini ham o'rganadilar. Bu esa ularning hayotdagi muloqot madaniyatini yaxshilashga yordam beradi.

4. Amaliyotning ahamiyati. Fonetika fanini o'qitishda xalq bayramlari, urf-odatlar va turli shevalarni o'z ichiga oluvchi amaliy mashg'ulotlar talabalarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodidan foydalanishning texnologik imkoniyatlarini ham kengaytirish lozim. Bu borada raqamli darsliklar, elektron qo'llanmalar va audio materiallardan foydalanish milliy qadriyatlarga asoslangan darslarni yanada samarali qiladi.

Umuman olganda, fonetikani milliy qadriyatlarga tayanib o'rgatish nafaqat til ta'limining asosiy maqsadlariga erishishni ta'minlaydi, balki milliy ma'naviyatni

rivojlantirish yo'lida muhim qadamdir. Shu sababli, o'qituvchilar o'z faoliyatida milliy qadriyatlarni dars mazmuniga singdirishga alohida e'tibor qaratishlari kerak. Bu, o'z navbatida, yosh avlodni bilimli va ma'naviy boy shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Izohlar**

1. Alimov, Sh. "O'zbek tili fonetikasi". – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 32.
2. Qo'chqorov, F. "O'zbek tilining leksikologiyasi va fonetikasi". – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – B. 46.
3. Hasanov, R. "Milliy qadriyatlar va ta'lim". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 88.
4. Hasanov, R. "Milliy qadriyatlar va ta'lim". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. – B. 112.
5. Qo'chqorov, F. "O'zbek tilining leksikologiyasi va fonetikasi". – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. – B. 98.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Alimov, Sh. "O'zbek tili fonetikasi". Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Rahimov, N. "Tilshunoslik nazariyasi". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
3. Qo'chqorov, F. "O'zbek tilining leksikologiyasi va fonetikasi". Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. Hasanov, R. "Milliy qadriyatlar va ta'lim". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
5. Vohidov, A. "O'zbek xalq maqollari va ularning semantik xususiyatlari". Toshkent: Fan, 2017
6. "Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2023-yil.
7. 5-sinf uchun "Ona tili" darsligi.
8. N. Atayev, F. Rasulov, S. Xasanov. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. 2011-yil.
9. A. J. Yo'ldoshev. Umumiy pedagogika. O'quv qo'llanma. 2017-yil.
10. "Til va adabiyot masalalari". Ilmiy maqolalar to'plami. 2020-yil.
11. Mahbuba Sobirova. "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi". 2023-yil.
12. A. Mavlanov. "Ona tili-o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi".